



“OILA VA GENDER”
ilmiy-tadqiqot instituti



OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGI

TOSHKENT-2025

REJA:

1

Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligining ahamiyati

2

Farzandli bo'lishga tayyorgarlik: oilani moliyaviy rejalashtirish

3

Farzand byudjeti

4

Ota-onalar uchun moliyaviy qoidalar va amaliy tavsiyalar.

1. OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGINING AHAMIYATI



Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligi oiladagi moliyaviy qarorlar sifati, bolalarning moliyaviy savodxonligi va kelajakdagi iqtisodiy mustaqilligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.




Ota-onaning iqtisodiy bilimdorligi nafaqat oilaviy farovonlik, balki kelajak avlodning iqtisodiy mustaqilligi uchun ham katta ahamiyatga ega.

OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGINING BOSQICHLARI



OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGINI OSHIRISH USULLARI

Moliyaviy ta'lim olish



- ✓ Onlayn kurslar va vebinarlarda qatnashish
- ✓ Kitoblar va maqolalar orqali moliyaviy bilimlarni oshirish
- ✓ Soha mutaxassislardan maslahat olish

Oilaviy byudjetni boshqarish



- ✓ Har oylik daromad va xarajatlar ro'yxatini yuritish
- ✓ Ortiqcha xarajatlarni aniqlash va kamaytirish
- ✓ Jamg'arma va sarmoya uchun mablag' ajratish

Bolalarga moliyaviy savodxonlikni o'rgatish



- ✓ Bolalarga cho'ntak puli berish va uni boshqarishga o'rgatish
- ✓ Uyda iqtisodiy o'yinlar o'ynash (masalan, "bank" o'yini)
- ✓ Tijorat va tadbirkorlikni bolalikdan o'rgatish

OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGINI OSHIRISH USULLARI

Qarz va kredit siyosatiga e'tibor qaratish



- ✓ Qarz va kredit shartlarini yaxshilab tushunish
- ✓ Qarz olishdan oldin uning moliyaviy oqibatlarini tahlil qilish
- ✓ Qarzlarni o'z vaqtida to'lash uchun reja tuzish

Investitsiya qilish va moliyaviy xavfsizlik yaratish



- ✓ Uzoq muddatli jamg'arma va sug'urtaga e'tibor qaratish
- ✓ Turli sarmoya variantlarini o'rganish
- ✓ Pensiya jamg'armasi haqida oldindan qayg'urish



**OTA-ONALAR
DOIMIY RAVISHDA
O'Z IQTISODIY
BILIMLARINI
OSHIRIB BORISHI,
JAMG'ARMA VA
SARMOYAGA
E'TIBOR QARATISHI
LOZIM**

IQTISODIY BILIMSIZLIK NATIJASIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR



Ota-onaning iqtisodiy bilimsizligi oilaviy moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, turli muammolarga sabab bo'ladi.

**ORTIQCHA QARZ
YUKI**

**JAMG'ARMANING
YO'QLIGI**

**FARZANDLARNING
MOLIYAVIY
SAVODXONLIGI
PAST BO'LISHI**

**OILAVIY
NIZOLAR**

2.FARZANDLI BO'LISHGA TAYYORGARLIK: OILANI MOLIYAVIY REJALASHTIRISH



OILA BYUDJETI

Oila byudjeti – bu oila a'zolarining umumiy moliyaviy holatini boshqarish va rejalashtirish tizimi bo'lib, daromad va xarajatlarni muvozanatli ravishda taqsimlash orqali barqarorlikni ta'minlaydi.

To'g'ri shakllantirilgan byudjet iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytiradi, kelajakka ishonchni oshiradi va farzandlarining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi



OILAVIY DAROMADNI SHAKLLANTIRISH

OILAVIY DAROMADNI SHAKLLANTIRISH TURLARI



Odamning ishlash yoki ishlamasligiga qaramasdan keladigan boshqa daromad manbalar ham mavjud. Misol uchun: qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan keladigan daromadlar, bankka qo'yilgan omonat foizlari, uyni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar va boshqalar.

OILA BYUDJETI VA FARZANDNI REJALASHTIRISHDA SAMARALI USULLAR

Farzandli bo'lishga va uning rivojlanishiga yo'naltirilgan moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish uchun bir nechta muhim qoidalarni hisobga olish kerak: **"50/30/20" qoidasi**

"50/30/20" QOIDASI

Oilaning umumiy daromadining taqsimoti:



OILAVIY XARAJATLARNI REJALASHTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI



FARZANDLI BO'LISHGA TAYYORGARLIK: MOLIYAVIY REJALASHTIRISH



Bolaning dunyoga kelishi bilan oilaning xarajatlari sezilarli darajada oshadi, shuning uchun oldindan rejalashtirilgan oilaviy byudjet moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning eng samarali usullaridan biridir.

Homiladorlik davridagi xarajatlar

- ✓ Tibbiy tekshiruvlar
- ✓ Vitaminlar va ovqatlanish
- ✓ Homiladorlik davridagi kiyim-kechak
- ✓ Homiladorlik va tug'ruq uchun tibbiy xarajatlar
- ✓ Kelajakdagi xarajatlarga tayyorgarlik

Homiladorlik va tug'ruq uchun moliyaviy zaxira yaratish

Oilaviy byudjetni rejalashtirishda homiladorlik va tug'ruq xarajatlarini qoplash uchun maxsus jamg'arma tashkil qilish muhim:

- ✓ Ko'zlangan klinikaning xizmat bahosi
- ✓ Homiladorlik davrida olinadigan dorilar va vitaminlar
- ✓ Tug'ruqdan keyingi tibbiy xizmatlar

Farzand tug'ilgandan keyingi xarajatlar

Bola tug'ilgandan keyin oilaning moliyaviy yuklamasi sezilarli darajada ortadi. Shunday ekan, bu davrda xarajatlarni oldindan rejalashtirish kerak.



- ✓ Yo'riqnoma va tibbiy kuzatuv
- ✓ Oziq-ovqat va ovqatlanish
- ✓ Kiyim-kechak va buyumlar
- ✓ Bolalar yotog'i va asbob-uskunalar

FARZANDNI UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY REJALASHTIRISH

Bolaning ta'limi uchun mablag' yig'ish

Bolaning ta'limiga sarflanadigan mablag'ni oldindan rejalashtirish muhim. Buning uchun:

- ✓ Bolalar bog'chasi va maktab xarajatlarini aniqlash
- ✓ Davlat va xususiy ta'lim orasidan tanlov qilish
- ✓ Uzoq muddatli ta'lim fondini yaratish

Bolaning salomatligi uchun jamg'arma

Bolalarning tibbiy xizmatlari uchun byudjetda maxsus bo'lim ajratilishi kerak.

- ✓ Xususiy tibbiy sug'urta
- ✓ Favqulodda tibbiy xarajatlar uchun zaxira yaratish
- ✓ Tibbiy tekshiruvlar va profilaktika ishlarini rejalashtirish

3. FARZAND BYUDJETI



Farzand byudjeti – bu bola tug‘ilganidan mustaqil hayotga o‘tguniga qadar bo‘lgan davrda uning ehtiyojlari uchun sarflanadigan mablag‘larni rejalashtirish va taqsimlash tizimi

FARZAND BYUDJETINI YURITISHNING AFZALLIKLARI

- ✓ **Moliyaviy barqarorlik** – oila farzand tug‘ilgandan keyin moliyaviy inqirozga tushib qolmaydi.
- ✓ **Jamg‘arish imkoniyati** – bolaning ta‘limi va kelajagi uchun mablag‘ yig‘ishga yordam beradi.
- ✓ **Qarzdan qochish** – rejali moliyaviy boshqaruv orqali katta xarajatlarning bosqichma-bosqich qoplanishini ta‘minlaydi.
- ✓ **Oilaning turmush sifati yaxshilanadi** – farzand uchun xarajatlar oldindan rejalashtirilsa, oila boshqa sohalarga ham mablag‘ ajrata oladi.



FARZAND BYUDJETI BOSQICHLARI



Bola dunyoga kelishi bilan ta'lim, sog'liq, oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlar uchun doimiy xarajatlar yuzaga keladi. Shu sababli, oldindan rejalashtirilgan byudjet nafaqat moliyaviy bosimni kamaytiradi, balki bolaning farovon kelajagini ham kafolatlaydi.

FARZAND BYUDJETI BOSQICHLARI



0–3 yosh

Chaqaloqlik davri
(*tug'ilgandan keyingi xarajatlari*)



3–6 yosh

Maktabgacha ta'lim va rivojlanish



7–18 yosh

Maktab ta'limi va o'smirlik davri



18+ yosh

Maktab ta'limi va o'smirlik davri



0–3 YOSH: CHAQALOQLIK DAVRI

Chaqaloqlik davri ota-onalar uchun eng katta moliyaviy xarajatlar talab qiladigan bosqich hisoblanadi. Bu davrda asosiy xarajatlar bola parvarishi, tibbiy xizmatlar, oziq-ovqat va gigiena vositalariga sarflanadi.



ASOSIY XARAJATLAR

- ✓ **Tugʻruq va tibbiy xizmat** – kasalxona toʻlovlari, vaksinasiya va tibbiy tekshiruvlar
- ✓ **Oziq-ovqat va gigiena vositalari** – ona sutiga qoʻshimcha ovqatlar, tagliklar, shampunlar
- ✓ **Bolalar kiyimlari va buyumlari** – tez ulgʻayishni hisobga olgan holda, asosiy zaruriy buyumlar xarid qilinadi
- ✓ **Bolalar jihozlari** – bolalar yotogʻi, arava, avtokreslo, oʻyinchoqlar



3–6 YOSH: MAKTABGACHA TA'LIM VA RIVOJLANISH

Bu bosqichda asosiy xarajatlar bogʻcha, taʼlim, sport va ijodiy toʻgaraklarga, shuningdek, oziq-ovqat, kiyim-kechak va tibbiy xizmatlarga yoʻnaltiriladi.



ASOSIY XARAJATLAR

- ✓ **Bolalar bogʻchasi** – davlat va xususiy bogʻchalar oʻrtasida tanlov
- ✓ **Qoʻshimcha taʼlim va hunar oʻrganish** – ingliz tili kurslari, musiqa yoki sport toʻgaraklari
- ✓ **Oʻyinchoqlar va oʻquv vositalari** – bola salohiyatini rivojlantirish uchun yangi oʻyinlar va materiallar
- ✓ **Kiyim-kechak va poyabzal** – har faslga mos kiyimlarni tayyorlash



7–18 YOSH: MAKTAB TA'LIMI VA O'SMIRLIK DAVRI

Bu davrda ota-onalarning asosiy xarajatlari maktab, qo'shimcha ta'lim, transport, sport va ijodiy mashg'ulotlar, oziq-ovqat va tibbiy xizmatlarga yo'naltiriladi.



ASOSIY XARAJATLAR

- ✓ **Maktab kiyimi va anjomlari** – o'quv yiliga tayyorgarlik xarajatlari
- ✓ **Transport va ovqatlanish** – maktabga qatnashi uchun yo'l haqi va kundalik ovqat
- ✓ **Qo'shimcha ta'lim kurslari** – repetitorlar, chet tillari, san'at va sport to'garaklari
- ✓ **Kompyuter va texnologiyalar** – zamonaviy o'quv jarayoni uchun texnik uskunalar



18+ YOSH: OLIJ TA'LIM VA MUSTAQIL HAYOT

Bu davrda ota-onalarning asosiy xarajatlari o'qish, turar-joy, oziq-ovqat, transport, shaxsiy ehtiyojlar, texnologiyalar va ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq bo'ladi.



ASOSIY XARAJATLAR

- ✓ **Oliy ta'lim xarajatlari** – davlat grantlari, kontrakt to'lovlari
- ✓ **Yotoqxona yoki ijara haqi** – talabalar uchun turar joy to'lovlari
- ✓ **Transport va kundalik xarajatlar** – shaxsiy ehtiyojlar uchun mablag'
- ✓ **Oliy ta'limda qo'shimcha kurslar** – sertifikat dasturlari, xorijda o'qish imkoniyatlari



Farzand byudjeti – bu bolaning hayoti davomida uning ta’lim, sog’liq va rivojlanishi uchun moliyaviy rejalashtirishni talab qiladigan muhim masala. Har bir oila o’z imkoniyatlaridan kelib chiqib, rejali ravishda mablag’ to’plashi va farzandining kelajagi uchun moliyaviy barqarorlikni ta’minlashi kerak.

ASOSIY MASLAHATLAR:

1

Farzand byudjeti oldindan rejalashtirilishi kerak



2

Imkoniyati boricha moliyaviy zaxira yaratish muhim



3

Davlat imtiyozlaridan foydalanish tavsiya etiladi



4

Bolaning ta’limi va rivojlanishi uchun jamg’arma yaratish



4. OTA-ONALAR UCHUN 5 TA MOLIYAVIY QOIDA



1

QOIDA.

PUL E'TIBORSIZLARNI KECHIRMAYDI



Ko'pchilik pulni shunchaki rang-barang qog'oz parchalari yoki mos kelmaydigan tangalar deb bilishadi. Shuning uchun ular qanday qilib pul "kechirishi" yoki "kechirmasligi" mumkin, deyishadi. Ammo pul ijtimoiy munosabatlarning, ya'ni oxir-oqibat odamlar o'rtasidagi munosabatlarning mahsuli ekanligini eslasak, haqiqat aniqroq bo'ladi.

ASOSIY MASLAHATLAR:

**INTIZOM
VA TARTIB**

**O'RNAK
KO'RSATISH**

**TEJASH VA
REJALASHTIRISH**



2 QOIDA.

HAMMA NARSANI PUL HAL QILMAYDI



Pulning ahamiyatini ortiqcha baholamang. Axir, hayotdagi eng muhim narsalarni — hurmat, sevgi va do'stlikni ular uchun sotib olish mumkin emasligi aniq. Shuning uchun, bolaga boshidanoq dunyo pul atrofida aylanmasligini, boshqa ko'plab muhim, qiziqarli va munosib narsalar borligini o'rgatib borish lozim.

ASOSIY MASLAHATLAR:

**INSONIY
QADRIYATLAR**

**HAYOTDAGI
AHAMIYAT**

**PUL VA
MUNOSABATLAR**



3 QOIDA.

OILANGIZ BILAN PUL HAQIDA OCHIQ GAPIRING



Ota-onalar orasida oila davrasida, farzandlari bilan pul haqida gapirmaydigan, ular bilan oilaviy moliyaviy masalalarni muhokama qilmaydiganlar juda ko'p. Nega desangiz, "Bu oilaning siri", "Pul bolani buzadi", deyishadi. Biroq, bu katta xato. Chunki ota-ona aytmasa, bola pul qaerdan, qanday kelganini, qanday va nimaga sarflanayotganini bilmaydi.

ASOSIY MASLAHATLAR:

**MOLIYAVIY
TA'LIM**

**XARAJATLAR VA
JAMG'ARMALAR**

**MOLIYAVIY
SAVODXONLIKNI
OSHIRISH**



4

QOIDA.

BOLALARGA CHO'NTAK PULI BERING



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'pincha bolalar birinchi pullarini o'smirlik davrida olishadi. Biroq, mutaxassislarning fikriga ko'ra, boshlang'ich maktabdan oldin ham bola kichik mustaqil xaridlarni amalga oshirishga tayyor. Bu kelajakda uning pulga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ASOSIY MASLAHATLAR:

**MUSTAQIL
XARIDLAR**

**REJALASHTIRISH
VA MAS'ULIYAT**

**MUKOFOT
TIZIMI**



5

QOIDA.

BOLANGIZGA ISHONING



Ba'zi ota-onalar farzandlarini moliyaviy xatolardan ko'r ko'rona himoya qilishga harakat qilishadi. Misol uchun, ular do'konga yolg'iz borishga ruxsat berishdan qo'rqishadi. Ota-onalar ko'pincha bolaning cho'ntak pulini mantiqsiz sarflashi yoki hatto yo'qotishi mumkinligidan qo'rqib, "ko'z oldida" bo'lishini talab qilishadi.

ASOSIY MASLAHATLAR:

**MUSTAQIL
QARORLAR
QABUL QILISH**

**XATOLARDAN
O'RGANISH**

**OILA ICHIDAGI
MUNOSABATLAR**

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**